



## O'ZBEKISTONDA ISTE'MOL BOZORINI TO'LDIRISHDA KICHIK VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O'RNI

**I.T. Yormatov**

Farg'ona politexnika instituti  
Menejment kafedrası, dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7161744>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> October 2022

Accepted: 04<sup>th</sup> October 2022

Online: 08<sup>th</sup> October 2022

### KEY WORDS

*jamiyat, farovonlik, mamlakat taraqqiyoti, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, milliy iqtisodiyot, istemolchi, ichki bozor, o'rta biznes, infratuzilma, raqobat, soliq tizimi, ishlab chiqarish resurslari.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada dunyoning rivojlangan davlatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasining tajribasiga asoslanib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi ekanligi asoslab beriladi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning hozirgi holati va bu sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va rivojlanish yo'nalishlari to'g'risida fikrlar bildirilgan. Shuningdek mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish iqtisodiy rivojlanishning muhim manbai bo'lib, korxonalar o'rtasida raqobatbardoshlikning oshishiga xizmat qiladi .. Yuqorida aytilganlarning barchasi davlat oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga asosiy turtki beruvchi omil bo'lishi bu masalalarning asosiy yechimi bo'lishi mumkinligi to'g'risida so'z yuritiladi.*

Dunyoning rivojlangan davlatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasining tajribasiga asoslanib aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu rol quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

- mamlakatning chekka hududlarigacha innovatsion va zamonaviy texnologiyalrini kirib kelishiga zamin yaratadi.
- kichik va xususiy tadbirkorlikning samarali rivojlanishi mamlakat milliy iqtisodiyotining o'sishiga bevosita ta'sir qiladi;
- ichki bozorni iste'molchilar orasida talabga ega bo'lgan tovarlar va xizmatlar bilan to'ldiradi;
- ilm va fan-texnika taraqqiyoti kashfiyotlarini ishlab chiqarishga joriy qilishni tezlashtiradi;
- yangi ish o'rinlarini yaratadi va hokazo.

Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish iqtisodiy rivojlanishning muhim manbai bo'lib, korxonalar o'rtasida raqobatbardoshlikning oshishiga xizmat qiladi .. Yuqorida aytilganlarning barchasi davlat oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga asosiy turtki beruvchi omil bo'lib bu masalalarning asosiy yechimidir. Hozirgi kunda mamlakatda mahalliy ishlab chiqarishga bog'liq holda tovar va xizmatlar bozorining yuqori darajada rivojlanishini shakllantirishning ahamiyati yaqqol ko'rinib turibdi, chunki bozor mamlakat aholisining ichki ehtiyojlarini qondiradi, yangi qo'shimcha ish o'rinlarini yaratadi, infratuzilmani modernizatsiya qiladi. Bundan tashqari, bozor ma'lum darajada aholi daromadlarini olishni ta'minlash bilan shug'ullanadi, bu esa mamlakat aholisi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.



O'zbekisto iqtisodiyotida iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili kichik va xususiy biznes sektoridir. Kichik korxonalar yirik sarmoyalarni talab qilmaydi, mavjud infratuzilma mexanizmi asosida ishlaydi, investitsiya va moliyaviy resurslardan, ishchi kuchidan maqsadga muvofiq va samarali foydalanadi.

O'zbekiston mustaqilikka erishgan ilk yillaridan boshlab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xususan ishlab chiqarish tadbirkorligini rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning 50 dan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) lavozimi joriy qilindi. Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yilib, unga 200 milliard so'm va 50 million dollar mablag' ajratildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Statistik ma'lumotlar bunday amaliy choralar o'z natijasini berayotganligini ko'rsatmoqda. 2021 yilda kichik biznes mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining

qariyb 60 foizini, sanoat mahsulotlari hajmining uchdan birini, qishloq xo'jaligi mahsulotining 98 foizini, investitsiyalarning yarmini ta'minlamoqda. Ko'pgina viloyatlarda eksportning 70-90 foizi aynan kichik biznesga to'g'ri keladi. 2022 yilning 6 oyida tadbirkorlik sub'ektlari soni 60 mingtaga ortgan. Vaholanki 1990 yillarda mamlakat yalpi ichki mahsuloti ulushi tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi atagi 1 foizni tashkil qilar edi. Mazkur isloxlarning samarasi ularok, 2020 yil yakunlariga kura, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi YaIMda 53,9 foiz, sanoat mahsulotlari xajmida 44,3 foiz, kishlok xujaligi mahsulotlari xajmida 98,4 foiz, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar xajmida 38 foizga yetdi va jami axolining 78,2 foizi mazkur soxada mexnat kilmokda.

Statistik ma'lumotlar keyingi yillarda kichik va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi barcha xududlarda kamayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagi omillarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- Davlat tomonidan o'rta biznesni yanada rivojlantirishga e'tibor qaratilayotganligi;
- Raqobatga barchaga teng imkoniyatlar yaratish maqsadida kichik biznesdagi keraksiz imtiyozlarni kamaytirilishi va ayrimlarini bekor qilinishi;
- Soliq tizimini soddalashtirilishi va hakovolar.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi bo'yicha qayd etilgan ko'rsatkichlar aksariyat bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan yuqori hisoblanadi.



Jumladan, ushbu ko'rsatkich Italiyada 60,0 foizni, Yaponiyada 55,0 foizni, Germaniyada 54,0 foizni, Buyuk Britaniyada 53,0 foizni tashkil etadi. MDH mamlakatlari guruhidan Qozog'istonda 25,6 foiz, Rossiya Federatsiyasida esa 20,0 foizga ten

Amalga oshirilgan islohatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ijtimoiy-iktisodiy jixatdan quyidagi masalalarni hal qilishga olib kelishini ko'rsatmoqda. Ya'ni:

- mamlakat aholisi xayot darajasini yuksalishiga.
- Yangi innovatsion texnologiyalarni chekka hududlargacha kirib kelishiga;
- Yangi ishlab chiqarish va xizmat turlarini rivojlanishiga;
- Yangi ish o'rinlari yaratilishi hisobiga ishsizlikni kamaytirishga olib keladi;
- Ishlovchilarni doimiy daromad manbalariga ega bo'lishlariga.

O'zbekistonda bu iqtisodiy soha nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u samarali va jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishni ta'minlash uchun katta imkoniyatlarga ega. O'zbekiston Respublikasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun yetarli

miqdorda investitsion va ishlab chiqarish resurslari, shuningdek, ishchi kuchi safarbar qilingan. Yaqin kelajakda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli oshadi, chunki O'zbekiston ijobiy demografik salohiyatga ega, bu mehnat bozorida ishchi kuchi taklifining oshishiga va istemolchilarda tovar va xizmatlarga talabning oshishiga ta'sir qiladi.

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash lozimki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik dunyoda doimiy o'zgarib turadigan geosiyosiy, epidomologik va iqlim o'zgarishlari sharoitlarda o'z vaqtida tezkor javob ko'rsatish tufayli ichki milliy iste'mol bozorini rivojlantirishga katta hissa qo'shishi mumkin. Bu soha vakillari aholi uchun mavjud bo'lgan moliyaviy va ishlab chiqarish resurslarini, ular bo'lmaganda ishlab chiqarishda foydalanilmaydigan mehnat va xom ashyoni ham o'z ichiga olgan moliyaviy va ishlab chiqarish resurslarini bevosita safarbar etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu xususiyati iste'molchilar talabini individuallashtirish va tabaqalashtirish, ilmiy-texnikaviy jarayonni jadallashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimenti va ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish, shuningdek, aholi ehtiyojlarini to'liq qondirishi tufayli muhim ahamiyat kasb etmoqda.

## References:

1. Achilov, A. N., & Payazov, M. M. (2020). Вопросы улучшения социального положения населения республики Узбекистан и качественной организацией коммунальных услуг. *Theoretical & Applied Science*, (5), 708-713.
2. Mazzarol, T., Reboud, S. (2020). The Role of the Small Business Within the Economy. In: *Small Business Management*. Springer Texts in Business and Economics. Springer, Singapore. [https://doi.org/10.1007/978-981-13-9509-3\\_1](https://doi.org/10.1007/978-981-13-9509-3_1)
3. М. А. Максудов, И. Т. Ёрматов, & Ж. А. Максудов (2019). К вопросам эффективного использования финансовых ресурсов на предприятии. *Экономика и бизнес: теория и практика*, (6-2), 57-61. doi: 10.24411/2411-0450-2019-10860  
URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosam-effektivnogo-ispolzovaniya-finansovyh-resursov-na-predpriyatii/viewer>



4. Ерматов, И. Т. (2017). Актуальные проблемы повышения инновационного потенциала Узбекистана. Актуальные проблемы гуманитарных и социально-экономических наук, 5(11), 70.  
URL:<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=28938038>
5. Ерматов, И. Т. Некоторые проблемы модернизации промышленных предприятий / И. Т. Ерматов // Научно-технический прогресс: социальные, технические и общественные факторы : Сборник статей. – Москва : ООО "ИМПУЛЬС", 2018. – С. 133-137. – EDNXTALBJ.  
URL:<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35245208>
6. Ёрматов И. Т. Кичик бизнес субъектларида инвестицион жозибадорликни ошириш масалалари“Техника ва технологиянинг долзарб муаммолари, уларнинг энерготехмакор ва инновацион ечимлари” Республика илмий – техник анжумани материаллари, 2- қисм, 137 – 139 бетлар. Фарғона – 2016й.
7. Yormatov I. T. ISSUES OF ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN NEW INSTITUTIONAL CONDITIONS. Электронное научно – практическое периодическое издание «Экономика и социум» №10, 2021 г. 362-368 str.
8. И.А.Носиров. Влияние научно-технического прогресса на эффективное использование природных ресурсов. Сборник материалов VII Международной научно-практической конференции. политика, экономика и социальная сфера: Проблемы взаимодействия, Новосибирск 2016
9. Носиров И.А. THE GLOBAL ENVIRONMENTAL PROBLEMS, ENVIRONMENTAL MANAGEMENT TASKS FOR THEIR SOLUTION.SeyboldReportISSN: 1533-9211, Scopuscoverageyears, TradeJournal.,2022ya.
- 10.Ergashev, R. The ways of fishing farms management and developing the production activity / R. Ergashev, U. Beglaev // International Journal of Scientific and Technology Research. – 2020. – Vol. 9. – No 2. – P. 919-921.
- 11.RakhmatullaKhidirovichErgashev,ZuhraJabborova The importance of innovative activity in tourism European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 4, April 2021, ISSN: 2660-5562  
<https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/663/554>
- 12.Yuldasheva, N. (2022). Scientific and Theoretical Aspects of the Development of Innovative Strategies in the Management of Industrial Enterprises. Bulletin of Science and Practice, 8(5), 457-461. (in Russian). <https://doi.org/10.33619/2414-2948/78/53>
13. Yuldasheva NA (2018) Method of diagnostics of the enterprise in the system of anti-crisis management. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (60): 248-252. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2018.04.60.45> Yuldasheva, N. (2022). Scientific and Theoretical Aspects of the Development of Innovative Strategies in the Management of Industrial Enterprises. Bulletin of Science and Practice, 8(5), 457-461. (in Russian). <https://doi.org/10.33619/2414-2948/78/53>